



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 6-dekabr

642-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-201-son farmoni to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-201-son farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrda “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-201-son farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Bolalar masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi tarkibi **1-ilovaga**;

Bolalar masalalari bo‘yicha tuman (shahar) komissiyasining namunaviy tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Bolalar masalalari bo‘yicha viloyat va tuman (shahar) komissiyalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini **amalda ro‘yobga chiqarish**, ularning jismoniy, intellektual, ma‘naviy hamda ahloqiy jihatdan **kamol topishiga, qobiliyati va iste‘dodini to‘liq namoyon etishiga** ko‘maklashish bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida bajarilayotgan ishlarni **tizimli tahlil qilish, baholash va samaradorligini oshirish** bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ijtimoiy yetimlikning oldini olish va bolalarning **ustuvor ravishda oila muhitida o'sib-ulg'ayishini ta'minlash maqsadida bolalarni oilaga tarbiyaga berish bo'yicha ko'rilayotgan** chora-tadbirlar va **tarbiyaga berish tizimining samaradorligini tahlil qilish hamda ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar** kiritib borish;

sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarga chuqur bilim berish, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam tahlil qilib borish hamda ta'lim olishga to'siqlik qilayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan ta'sirchan choralarni belgilash;

"Xavfsiz maktab" tizimi keng joriy etilishiga qaratilgan va maktablarda **ahloqiy-psixologik muhitni yaxshilash** bo'yicha dasturlar amalga oshirilishi holatini tahlil qilib borish;

bolalarning **bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish**, ularni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda **bolalar sportini yanada rivojlantirish** bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasini muhokama qilib borish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni **inklyuziv ta'limga jalb qilish, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish va jamiyatga integratsiyasini ta'minlash** bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligini baholash;

bolalarni vatanparvarlikka undaydigan, ta'lim-tarbiya samaradorligini, **vatanparvarlik va Vatanga sadoqat hissini yuksaltirish** bo'yicha ko'rilayotgan choralar ta'sirchanligini oshirish;

bolalar **salomatligini asrash**, ularga **sifatli tibbiy yordam ko'rsatish**, ular orasida **sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni** yo'lga qo'yish, ta'lim tashkilotlarida bolalarning **oziq-ovqat ta'minoti, ularning sifati va sanitariya holatini** o'rganib borish va yaxshilash bo'yicha zarur choralarni ko'rish;

bolalarda **huquqbuzarliklarga qarshi immunitetni** shakllantirish, ular orasida huquqbuzarlik, nazoratsizlik va g'ayriijtimoiy xatti-haraqatlarning, shuningdek, **bolalar ekspluatatsiyasi**, ularga nisbatan **zo'rvonlikning oldini olish va ularning reabilitatsiyasini ta'minlash** bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini tahlil qilish va ular samaradorligini oshirish choralarini ko'rish;

bolalar o'rtasida spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki boshqa salbiy illatlarni erta bosqichlarda **aniqlash**,

davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va ularning yechimi bo'yicha takliflar tayyorlash;

ijtimoiy himoyaga muhtoj **bolalarni qo'llab-quvvatlash**, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholab borish va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

bolalar bilan ishlash tizimidagi kamchiliklar, ularning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari va tashkilotlarining, bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyalarning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

4. Farmonda belgilanishicha,

Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari hamda tuman (shahar) "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tegishli Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya va hududiy komissiyalarning ishchi organi vazifasini bajaradi. Bunda Milliy gvardiyaga komissiyalar ishchi organlariga komissiyalar yig'ilishlarini o'tkazish, komissiyalar faoliyati uchun zarur axborotlarni to'plash va tahlil qilishda ko'maklashish vazifasi yuklatiladi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan har chorakda kamida bir marta yig'ilish o'tkazadi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalarning bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan takliflari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'z yig'ilishlarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining komissiya faoliyatiga doir masalalar bo'yicha axborotlarini eshitib boradi, shuningdek, vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qiladi;

bolalar masalalari bo'yicha komissiyalarning ishchi organlari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti tegishli komissiya raisi tomonidan belgilanadi.

5. Viloyat teleradiokompaniyasi (To'ychiyev), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (**Nusurov**)ga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-dekabrdagi PF-201-son farmonning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Milliy gvardiya bo'yicha viloyat boshqarmasi boshlig'i U.Azimov hamda tuman (shahar) hokimlari belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Qobilov va Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i J.Raxmankulov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-dekabrda
642-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bolalar masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi
TARKIBI

1.	M.Azimov	Viloyat hokimi, komissiya raisi
2.	J.Raxmankulov	Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari
3.	U.Azimov	Milliy gvardiya bo'yicha viloyat boshqarmasi boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari
4.	R.Do'stmatov	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari
5.	U.Oripov	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i
6.	O.Movlanov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i
7.	A.Boboyev	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i
8.	Z.Aminova	Viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i
9.	D.Allayev	O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi boshlig'i
10.	I.To'rayev	Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i
11.	V.Ro'ziyev	Viloyat sport boshqarmasi boshlig'i
12.	A.Axmedov	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
13.	S.Aripov	Viloyat raqamli texnologiyalar hududiy sho'basi boshlig'i
14.	B.Maxmadaliyev	Viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
15.	F.Muhammadiyev	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i
16.	R.Usmonov	O'zbekiston Musulmonlar idorasi viloyat vakili, viloyat bosh imom-xatibi
17.	S.Fayziyev	Viloyat prokurori o'rinbosari
18.	U.Gaziyev	Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i
19.	K.Karomova	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari
20.	I.Norqulov	Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kotibiyati bosh mutaxassisi,

		komissiya kotibi
--	--	-------------------------

Izoh: *ushbu komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-dekabrda
642-4-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Bolalar masalalari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasi namunaviy
TARKIBI**

1.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) hokimi, Komissiya raisi
2.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazi direktori, Komissiya raisi o'rinbosari
3.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi boshlig'i, Komissiya raisi o'rinbosari
4.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
5.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Milliy gvardiya hududiy boshqarmasining tuman (shahar) umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha katta inspektor-psixologi
6.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi boshlig'i
7.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i
8.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) hokimining o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
9.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limi rahbari
10.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) madaniyat bo'limi boshlig'i
11.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limi boshlig'i
12.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
13.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) bosh imom-xatibi
14.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) prokurori
15.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
16.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	Tuman (shahar) hokimligi apparati mas'ul xodimi, Komissiya kotibi

Izoh: *ushbu komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*